O'quvchilarda ekologik kompetensiyani shakllantirish: biologiya darslarida global ekologik muammolar tahlili.....	686
Ibragimova Sitara Akmal qizi	
Ba'zi 3D-metallarining 2-amino-5-allitio-1,3,4-tiadiazol bilan kompleks birikmalarini o'rganish	690
Jumaniyazova Gulxumar Karimbayevna	
Tizimli bilish kompetentligining mazmuni va uning maktabgacha ta'limdagi o'rni	696
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
O'qituvchilik mahorati va axloqiy madaniyatning mushtarakligi.....	700
Nabiyev Islom Karimovich	
Qarshi shahrida turizm menejerlarining kasbiy malakasini uzluksiz takomillashtirishni ta'minlash	706
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida moslashuvchan kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asoslari....	710
Nuriddinova Diyora Isaqali qizi	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	714
Pardayev Asror Ikromovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi	718
Qayumova Mahfuzaxon Alisher qizi	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish metodikasi (Temurbeklar maktablari misolida)	724
Quldashev Murodjon G'aniyevich	
Bugungi voleybolda to'p uzatish texnikasi va aniqligini 13–14 yoshdan boshlab aylanish harakatlari ta'sirida shakllantirish afzalligi	727
Rejapov O'tkirbek G'ayratjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bolalar o'yin folklorini o'rgatishda tolerantlikni rivojlantirishning metodik usullari va texnologiyalari.....	733
Ro'ziboyeva Madina Salimovna	
Pedagogik muloqot tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	737
Ro'zimatova Maxpuza	
Intellektual qadriyatlarning talaba yoshlar aksiologik hayotiy pozitsiyasini shakllantirishdagi roli	743
Rustam Latipov Mamadaliyevich	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda AI-platformalarni integratsiyalashning amaliy mexanizmlari	747
Rustamov Kamoliddin Ziyodillo o'g'li	
Maktab biologiya ta'limida individuallashtirish texnologiyasidan foydalanish metodikasi	754
Savutova Malohat Erkinovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning turizm sohasiga bo'lgan munosabatini o'rganishning ijtimoiy-pedagogik metodikasi.....	760
Shodiyorov Rustam Xasan o'g'li	
Bo'lajak harbiy xizmatchilarda deontologik yondashuvlar asosida raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish.....	764
Soyibnazarov Baxtiyor Abdunazar o'g'li	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida umumiy yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlar tizimini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning dolzarb masalalari	770
Sultanova N. B.	
Ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirishda tibbiy-psixokorreksion maslahat ishlar mazmuni	775
Suvanqulova Shaxnoza Karimqulovna	
Blokcheyn texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va imkoniyatlari	780
Suyumov Jo'rabek Yunusaliyevich	



Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	783
<i>Tojibayeva Nazokatxon</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni	787
<i>To'xtasinova Nigoraxon Azizxon qizi</i>	
Oliy o'quv yurtlarida analitik kimyo fanini o'qitishning samaradorlik ko'rsatkichlari	793
<i>Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi</i>	
Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari	796
<i>Xamidova Nigora Ibrohimovna</i>	
Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр	800
<i>Абдулахадова Шохид</i>	
Особенности педагогической деятельности и их виды	803
<i>Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.</i>	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности	808
<i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз	811
<i>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
<i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise	818
<i>Ikramova Aziza Aminovna</i>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	823
<i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
<i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>	
Ko'zi ojiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
<i>Qarshiboyev Asliddin</i>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
<i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
<i>Азмиева Э. Э.</i>	
Мaktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati	851
<i>Xoldarova F. M.</i>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
<i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
<i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
<i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida	865
<i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
<i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
<i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>	
Oliy badiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	

MEDIA AXBOROT VOSITALARINING BOLALAR VA O'SMIR YOSHLARGA TA'SIRI

Arobova Shohsanam Akram qizi

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0008-9657-5680

Annotatsiya: Ushbu maqolada media axborot vositalarining bolalar va o'smir yoshlarga ta'sirining nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Bolalar va o'smir yoshlarning xorijiy videolar, qo'shiqlar, kliplar tinglashi, ularga taqlid qilishi, internet o'yinlariga qaram bo'lishi, ayrim blogerlarning faoliyati va ommaviy madaniyat tushunchalari hamda internetdagi noqonuniy o'yinlarga qarshi O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosati va qonuniy hujjatlar o'rganilgan. Shuningdek, media vositalaridan faqat ijobiy maqsadlarda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida uchraydigan muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, media, axborot vositalari, axborot, bolalar, o'smir yoshlar, media ta'lim, internet.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of the influence of media on children and adolescents. It analyzes their engagement with foreign videos, songs, and clips, imitation of such content, and addiction to online games, as well as the impact of some contemporary bloggers and the concepts of mass culture. The study also reviews the state policy and legal documents in Uzbekistan aimed at combating illegal online games and highlights the negative effects of media on the younger generation. Furthermore, it identifies the challenges of forming skills in children and adolescents to use the Internet positively and proposes recommendations for addressing these issues.

Key words: Uzbekistan, media, information, children, adolescents, media education, internet.

Аннотация: В статье исследуются теоретические и практические особенности влияния средств массовой информации на детей и подростков. Анализируется восприятие детьми и подростками зарубежных видеороликов, песен и клипов, их подражание, увлечение интернет-играми, влияние некоторых современных блогеров и концепции массовой культуры. Рассмотрены государственная политика и нормативно-правовые документы, направленные на борьбу с нелегальными интернет-играми в Узбекистане, а также негативное воздействие СМИ на детей и подростков. Кроме того, выявлены проблемы формирования у подрастающего поколения навыков позитивного использования интернета, разработаны рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: Узбекистан, СМИ, медиа, информация, дети, подростки, медиаобразование, интернет.

KIRISH

So'nggi yillarda media axborot vositalarining materiallarini integratsiyalashning aniq tendensiyasi paydo bo'ldi: matbuot, kino, televidenie, video, internet va boshqalar. Bu holat mahalliy media pedagogikada to'plangan tajribani an'anaviy va yangi media san'atlarida o'z ichiga oladi. O'zbekiston media ta'limining yagona konsepsiyasini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Shu bois, media ta'limning yoshga xos xususiyatlarini o'rganishga o'tishdan oldin, matbuot, video, televidenie va internetdan ma'lumot sifatida foydalanib, bugungi yosh avlodning ommaviy axborot vositalariga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish zarurdir.

Bugungi kunda maktab o'quvchilari va yoshlari orasida eng mashhur media axborot vositasi bu – qo'lida mobil aloqa telefondir. Aynan hozirda bolalarning media olami bilan tanishishi ushbu telefon orqali boshlanmoqda. Bolalar erta yoshdan boshlab kitob emas, balki mobil aloqadagi videolar va o'yinlarni o'ynash bilan vaqt o'tkazmoqdalar. Telefonda ko'rgan narsalarini yaxshi xotirada saqlaydilar, faol teletomoshabinga aylanadilar va telefonga bog'lanib, tobe bo'lib qolmoqdalar.

Yoki bolajonlarimiz televizordagi "Aqlvoy" va "Bolajon" ko'rsatuvlarining ashaddiy tomoshabinlari va muxlislariga aylanib ulg'ayishmoqda (o'z xohish-istaklari va sevimli qahramonlari bilan). Ular maktabga kirganlarida, odatda, kompyuter savodxonligi asoslarini o'zlashtirib bo'lishadi.



Televidenie har bir uyda har kuni va har soatda mavjud bo'lgan eng qulay axborot va ko'ngilochar vosita sifatida qabul qilinadi. Televizor zamonaviy bolaning hayotida juda katta rol o'ynaydi: u hozirgi voqealar haqida ma'lumot beruvchi, ishonchli hamroh, maslahatchi va boshqalardir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda ommaviy axborot vositalarining materiallarini integratsiyalashning aniq tendensiyasi paydo bo'ldi: matbuot, kino, televidenie, video, internet va boshqalar. Bu holat mahalliy media pedagogikada to'plangan tajribani an'anaviy va yangi media san'atlarida o'z ichiga olgan Rossiya media ta'limining yagona konsepsiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. Shu bois, media ta'limning yoshga xos xususiyatlarini o'rganishga o'tishdan oldin, matbuot, video, televidenie va internetdan ma'lumot sifatida foydalanib, bugungi yosh avlodning ommaviy axborot vositalariga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish zarur, deb hisoblaymiz.

Media ta'lim jarayonida maktab o'quvchilari va talabalarning yosh xususiyatlarini hamda ommaviy axborot vositalariga bo'lgan afzalliklarini hisobga olgan holda, zamonaviy bolalar va yoshlar auditoriyasining ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi bir vaqtning o'zida texnik vosita va ma'naviy madaniyat omili sifatida namoyon bo'ladi. A.V. Sharikovning so'zlariga ko'ra, "Televidenie umumiy ijtimoiy darajada oltita asosiy funksiyani bajaradi: integratsiya, kommunikativ, tartibga solish, tashviqot, radioeshittirish, prognoz va fikrni shakllantirish. Bundan tashqari, televidenie ta'lim, tarbiya va ma'rifiy vazifalarni bajaradi; madaniyatni, badiiy-estetik tarbiyani, ma'naviy qadriyatlarni, xulq-atvor me'yorlarini va muloqot standartlarini etkazishga yordam beradi" ^[1].

Rossiya media ta'limini rivojlantirish uchun televideniening katta salohiyati A.V. Spichkin, A.V. Fedorov, A.V. Sharikov va boshqalarning asarlarida o'z aksini topgan. Masalan, A.V. Spichkinning fikricha, "Bu televideniyaning mavzuga asoslangan media ta'lim tizimini qurishning o'zagi sifatida ko'rish mumkin" ^[2]. Darhaqiqat, so'nggi yillarda televidenie ommaviy axborot vositalarining asosiy shakliga aylandi.

Hozirgi vaqtda interaktiv internetning bir qator o'yinga asoslangan shakllari mavjud bo'lib, ularda tomoshabin ma'lumot oladi va buni o'zini-o'zi tarbiyalash uchun emas, balki shaxsiy zavq olish uchun amalga oshiradi. V.Ya. Surtayevning fikricha, televizion o'yin media madaniyatining paydo bo'lishi yosh shaxsni maksimal darajada ochib berishga, ularni turli xil va hissiy jihatdan yuklangan muloqot hamda ijtimoiy-madaniy improvizatsiya olamiga jalb qilishga yordam berishi mumkin, deb ta'kidlaydi ^[3].

Darhaqiqat, "Shiribom shou" – bu yangi va zamonaviy ko'rsatuv bo'lib, unda bolalar qiziqarli o'yinlarni o'ynab, bir-birlari bilan raqobatlashadilar. U o'zbek yosh teletomoshabinlari uchun allaqachon an'anaviy ko'rinishga ega. Televizion o'yinlar muayyan qoidalarga muvofiq tashkil etiladi: ular boshlovchilar, o'yinchilar va tomoshabinlarni o'z ichiga oladi.

O'yinlardan tashqari, bolalar va yoshlarning rivojlanish hamda o'zini-o'zi anglash nuqtai nazaridan eng samarali ko'rsatuv – bu "Zakovat"dir. Mazkur intellektual shou yosh teletomoshabinlarning bilim va tafakkur doirasini kengaytirib, ularga o'z intellektual salohiyatini ifoda etish imkoniyatini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola nazariy-tahliliy usul asosida yozildi. Tadqiqot davomida media axborot vositalarining bolalarga va yoshlarga ta'siri tushunchalarini rivojlantirish xususiyatlari o'rganildi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlar qo'llanildi:

- **Adabiyotlarni tahlil qilish** – mavzu bo'yicha mavjud ilmiy manbalar, maqolalar, dissertatsiyalar va ta'lim standartlari o'rganildi hamda umumlashtirildi.
- **Nazariy asoslarni tadqiq qilish** – media axborot vositalarining bolalarga va o'smir yoshlarga ta'siri tushunchalari, ta'lim sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar tahlil qilindi.
- **Ta'lim jarayoni va qonun hujjatlari** – O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi qarorlar va farmonlar, davlat dasturlari hamda xalqaro standartlar o'rganildi.
- **Konstruktiv tahlil** – olingan ma'lumotlar asosida media axborot vositalarining bolalarga va o'smir yoshlarga ta'siri, ularning ijobiy tomonlari hamda ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda maktab o'quvchilari (o'smirlar) va yoshlarning asosiy qismi xorijiy qo'shiqlar, videolar, kliplarni tomosha qilmoqdalar. Ommaviy madaniyatning xususiyatlari bilan o'rtoqlashib qolmoqdalar. Buning natijasida, o'smir yoshlar klip qahramonlariga taqlid qila boshlaydilar va ularga o'xshab kiyinishni istaydilar. Nafaqat xorijiy ijodkorlar, balki "o'zbek bloggerlarimiz" ham TikTok, Instagram va hokazolarda o'zbek mentalitetiga nomunosib chiqishlari bilan o'smirlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqdalar. Afsuski, hozirgi aksariyat yoshlar ushbu bloggerlarning videolarini kuzatadilar.

Bugungi kunda ayrim blogerlar hatto internet orqali qimor o'yinlarini reklama qilmoqdalar. Chunki o'smir davrida bola juda qiziquvchan bo'ladi va uni domiga tushib qolish ehtimoli yuqoridir. Internetdagi ishonchsiz qimor o'yinlariga undovchi kontent kun sayin ko'payib bormoqda. O'zbekistonda qimorga asoslangan onlayn o'yinlarni o'ynash va ularni reklama qilish bo'yicha jazo hamda javobgarlik choralari kuchaytirilmoqda. Bu haqda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Rasul Kusherboyev o'z Telegram sahifasida xabar bergan.

Deputatlar ko'rib chiqayotgan qonun loyihasiga ko'ra, Jinoyat kodeksiga quyidagi o'zgartirishlar kiritilishi ko'zda tutilmoqda: qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish, o'tkazish yoki ularda ishtirok etish uchun telekommunikatsiya tarmoqlari yoxud internet jahon axborot tarmog'i orqali xizmatlar ko'rsatish, tegishli dasturiy ta'minotdan nusxa ko'paytirish, uni tarqatish – BHMning 50 baravaridan 75 baravarigacha miqdorda jarima yoki 300 soatdan 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. O'zbekiston fuqarolariga noqonuniy tarzda lotereyalar va qimor o'yinlarida ishtirok etishni taklif qilayotgan xorijiy kompaniyalarga nisbatan olti turdagi qonunbuzarlik bo'yicha jarimalar belgilangan.

Ular orasida litsenziyasiz ishlash, shaxsiy ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalarini buzish, noqonuniy kazino va o'yin zallari ochish, pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirish, onlayn o'yinlar va lotereyalarni reklama qilish kabi qonunbuzarliklar mavjud. Jarima summasining 50 foizi davlat byudjetiga, qolgan 50 foizi esa tijorat banklari hisob raqamlariga o'tkaziladi. Hujjatga ko'ra, jarimani to'lash qonunbuzarni qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Agentlik jarimalarni qo'llashda quyidagilarni inobatga oladi:

- qoidabuzarliklarning tizimliliigi (ikki yoki undan ortiq marta sodir etilishi) va davomiyligi;
- yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklarning o'yinchilarning moliyaviy ahvoriga ta'siri;
- jarimalarni qo'llash natijasida vaziyatni o'zgartirish imkoniyati;
- aniqlangan qoidabuzarliklar va (yoki) kamchiliklarning yuzaga kelishi bilan bog'liq sabablar;
- ilgari qo'llangan jarimalarning samaradorligi (natijadorligi);
- internet tarmog'idagi o'yinlar, lotereyalar va bukmekerlik faoliyati tashkilotchilari hamda yuridik shaxslar tomonidan aniqlangan kamchiliklar yoki ularni bartaraf etishga qaratilgan mustaqil choralarning ko'rilganligi.

Jarimani qo'llash to'g'risidagi qaror agentlik direktori yoki uning vazifasini bajaruvchi tomonidan ishchi komissiya xulosasiga asosan qabul qilinadi. Agentlik jarimalarni qo'llash to'g'risidagi qarordan ko'chirmani jarima miqdori, to'lov muddati va tegishli hisobvaraqlar rekvizitlarini ko'rsatgan holda internetdagi lotereyalar va bukmekerlik faoliyati tashkilotchilariga hamda xorijiy yuridik shaxslarga uch ish kuni ichida yozma ravishda yuboradi.

Bunda tashkilotchilar jarima summasini yozma ravishda berilgan xabar olingan kundan boshlab o'n besh kun ichida to'lashlari lozim. Jarimalarni qo'llash to'g'risidagi qarordan norozi bo'lgan tashkilotchilar qarordan ko'chirmani olgan sanadan boshlab o'n besh kun ichida agentlikning apellyatsiya kengashiga yozma ravishda shikoyat berish yoki qonunchilikda belgilangan tartibda sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Hozirgi vaqtda reklama ommaviy axborot vositalarining deyarli barcha shakllarida – televidenie, radio, matbuot, veb-saytlar va boshqalarda uchraydi.

Zamonaviy maktab o'quvchilari deyarli har kuni media axborotlar bilan duch keladilar, turli janrdagi va murakkablik darajasidagi kompyuter o'yinlarini o'ynaydilar. Ular informatika darslarida ham, agar o'qituvchi mashg'ulot bilan ovora bo'lsa, internet o'yinlarini boshlaydilar. Mobil aloqa vositalarida ko'p vaqtini o'tkazgan maktab o'quvchilari orasida ortiqcha vazn yoki vaznning tushib ketishi, ko'rishning yomonlashishi, umumiy sog'lig'ining pasayishi kabi muammolar uchramoqda. Bularning barchasi internetdagi media vositalarini haddan tashqari iste'mol qilish bilan bog'liq muammolardir va mamlakatimizda yildan-yilga og'irlashib, yechimini talab qilmoqda.

Internetga qaramlik (ommaviy axborot vositalariga qaramlik, internetga qaramlik) bugungi kunda yana bir katta muammoga aylanib bormoqda. Masalan, tadqiqotchilar Rossiyada uch million kompyuter egalari o'rtacha 5 foizdan 14 foizigacha o'yinchilarning internetga qaramligini ta'kidlashadi. "Internetga qaram odam kompyuterda kuniga 5 dan 18 soatgacha vaqt o'tkazishi mumkin. Internetda o'tkaziladigan vaqt haftasiga 20 dan 50 soatgacha. Bu to'liq sakkiz soatlik ish kuni uchun zarur bo'lgan vaqtdan oshib ketadi. Mamlakatda 150 mingdan 400 mingga yoshlar o'zlarini bir xil kompyuter ekranining porlab turgan asosiy o'yinlaridan uzoqlashtira olmaydilar.



Halokatli mazmun: irqiy va jinsiy zo'ravonlikning yashirin reklamasi va tashviqoti, erotik hamda pornografik rag'batlantirishlar ham yoshlarni ko'proq jalb etmoqda. Buni rolli kompyuter o'yinlariga qaramlik misolida ko'rib chiqish mumkin.


- *Birinchi bosqich* – mobil aloqa o'yinlariga nisbatan yengil ishtiyoq bilan tavsiflanadi.
- *Ikkinchi bosqich* (ishqibozlik bosqichi) – bolaning internet o'yinlaridan muntazam foydalanishi va vaqtni sezilarli darajada oshirishi bilan tavsiflanadi. Agar uyda o'yin bo'lmasa, foydalanuvchi kompyuter klubiga boradi.
- *Uchinchi bosqich* (giyohvandlik bosqichi) – nafaqat o'ynash zarurati, balki foydalanuvchining o'zini-o'zi anglashi va o'zini-o'zi qadrlashidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liq. O'yinchining ijtimoiy aloqalari sezilarli o'zgaradi – ular boshqa o'yinchilar bilan ko'proq vaqt o'tkazadilar, ular bilan shaxsan yoki ko'pincha onlayn muloqot qiladilar.
- *To'rtinchi bosqich* (birikish bosqichi) – o'yin faolligining pasayishi kuzatiladi. Sevimli o'yinning barcha bosqichlarini tugatgandan so'ng, o'yinchi unga qiziqishni yo'qotishi mumkin. Ammo keyingi qismlarni o'ynash imkoniyati paydo bo'lishi bilanoq (odatda mashhur o'yinlar bir nechta qismlarni o'z ichiga oladi va ma'lum ma'noda teleseriallarga o'xshaydi), qiziqish yana kuchayadi ^[4].

Internetga qaramlikning asosiy psixologik va jismoniy belgilariga quyidagilar kiradi:

- oflayn rejimda tizimga kira olmaslik;
- oila va do'stlarni e'tiborsiz qoldirish;
- ish va o'qishdagi muammolar;
- kasb bilan bog'liq yolg'on gapirish;
- karpal tunnel sindromi;
- shaxsiy gigienaga e'tibor bermaslik;
- uyqu buzilishi;
- xatti-harakatlarning o'zgarishi va boshqalar.

Telefonda yoki internetda o'yinlarga qaram bo'lgan foydalanuvchilar bolalarning jismoniy faolligining keskin pasayishi bilan tavsiflanadi.

Umumiy farovonlikning yomonlashishi, izolyatsiya, real hayotdagi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.



Ko'pgina internetga odatlangan foydalanuvchilar o'zlarining begunoh ko'rinadigan qaramligini mustaqil ravishda yengishga qodir emaslar va psixologlar hamda psixoterapevtlar yordamiga murojaat qilishga majbur bo'ladilar. Tibbiyot mutaxassislari mijozlari orasida bunday shaxslar tobora ko'proq uchramoqda.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Farzandlarimizni har tomonlama yetuk shaxs va barkamol inson qilib tarbiyalash har birimizning muqaddas burchimiz sanaladi. Ularni doimo nazorat qilishimiz darkor. Ayniqsa, o'smir yoshlar tez o'zgaruvchan hamda do'stga muhtoj bo'ladilar. Ota-onalar farzandlari bilan do'stona munosabatda bo'lishlari kerak. Agar ota-onalar farzandlarining media axborot vositalaridan ishonchli foydalanishlarini istasalar, ular uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- farzandlarini kuzatish;
- suhbatlashish (ota-ona do'stona munosabatda suhbatlashishi);
- telefonni doimo nazorat qilib turish;
- foydali ta'limiy saytlar bilan tanishtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шариков А.В. Возрастные особенности телевизионных ориентаций школьников. – М., 1989.
2. Спичкин А.В. Что такое медиаобразование. – Курган: Изд-во ин-та пов. квалиф. и переподготовки работников обр-я, 1999. – 10 б.
3. Суртаев В.Я. Социокультурное творчество молодежи: методология, теория, практика. – СПб., 2000. – 142–143 б.
4. Верховцев К.Н. Медиапедагогика и медиапсихология. – Таганрог, 2017. – 322 б.
5. B.S. Abdullayeva, Y.Z. Ro'ziyev, K.V. Ismoilova. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. – Darslik. – T.: O'zbekiston, 2024. – 260 b.
6. T.B. Burxonov. Axborot xavfsizligi asoslari. – O'quv qo'llanma. – Buxoro: "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2022. – 156 b.
7. B.Sh. Butayev, G.B. Ahmedova. Internetga qaramlik psixologiyani obyekt sifatida. – Ijodkor o'qituvchi, 2023-yil 5-iyun, №30. – 270–275 b.
8. <https://t.me/sputnikuzbek>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.